

## INTERNET TARMOG'IDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Ismailov Tohirjon Xushnadbek o'g'li

Ma'mun universiteti "Devonxona bo'limi" boshlig'i

E-mail: ismailovtohir4349@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8571-3653

Karimova Laylo Xushnud qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Yuridika fakulteti, Yurisprudensiya  
yo'nalishi talabasi

Email: l9164665@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21943819>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy asoslari ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. "Shaxsga doir ma'lumotlar" tushunchasining konstitutsiyaviy va qonuniy asoslari, ularga ishlov berish tamoyillari, institutsional-nazorat mexanizmi, reyestr tizimi hamda yuridik javobgarlik normalari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining ushbu boradagi amaldagi qonunchiligi, so'nggi o'zgartirishlar hamda xalqaro tajriba (GDPR) bilan qiyosiy tahlil ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, Internet tarmog'i, huquqiy asos, ma'lumotlar reyestri, yuridik javobgarlik, raqamli xavfsizlik, GDPR, axborot huquqi, shaxsiy hayot daxlsizligi.

**Kirish.** Zamonaviy raqamli jamiyatda Internet tarmog'i orqali shaxsga doir ma'lumotlarning yig'ilishi, saqlanishi va tarqatilishi ko'lamiga tobora kengayib bormoqda, bu esa fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashish, ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi kabi jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda [1]. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron xizmatlar va turli onlayn platformalar orqali to'planadigan ulkan hajmdagi shaxsiy ma'lumotlar aniq huquqiy tartibga solinmasa, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari jiddiy tahdid ostida qolishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ushbu sohani tartibga solish borasida izchil huquqiy islohotlar amalga oshirilmogda — "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan, unga bir necha bor qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishni yanada kuchaytiruvchi muhim o'zgartirishlar kiritildi [2]. Biroq Internet tarmog'ining o'ziga xos, transchegaraviy va tezkor xarakteri ushbu huquqiy tartibga solishni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning amaldagi huquqiy asoslarini, ularning institutsional mexanizmlarini va yuridik javobgarlik tizimini ilmiy jihatdan tizimli tahlil qilish, mavjud qonunchilikning kuchli va takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi [3].

Internet tarmog'ida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish va tarqatish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tadqiqot obyekti sifatida olindi. Internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni tartibga soluvchi huquqiy normalar, institutsional mexanizmlar va yuridik javobgarlik tizimi tadqiqot predmetini tashkil etadi.

**Muammoning o'rganilgan darajasi.** Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari, jumladan Yevropa Ittifoqining GDPR (General Data Protection Regulation) reglamenti xorijiy huquqshunoslarning tadqiqotlarida [1] keng yoritilgan bo'lib, unda

ma'lumotlar sub'ektining huquqlari, "unutilish huquqi" kabi institutlar ilmiy jihatdan asoslangan. Mahalliy huquq fanida esa "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning huquqiy tabiati va asosiy tamoyillari yuridik tadqiqotchilarning ishlarida [2] tahlil qilingan.

Axborot huquqi va raqamli xavfsizlik masalalari umumhuquqiy nuqtai nazardan mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida [3] yoritilgan bo'lib, ularda shaxsiy ma'lumotlarning oshkor etilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar va ularning oldini olish choralari tahlil qilingan. Shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi davlat organi — Davlat personallashtirish markazi — tomonidan e'lon qilingan rasmiy materiallarda [4] amaldagi qonunchilikning asosiy qoidalari sharhlangan.

Shunga qaramay, olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aynan Internet tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini (transchegaraviylik, tezkorlik, foydalanuvchilar sonining ko'pligi) hisobga oluvchi, mahalliy qonunchilikning barcha huquqiy mexanizmlarini (konstitutsiyaviy, institutsional, reyestr, javobgarlik) yagona tizimda tahlil qiluvchi kompleks ilmiy-huquqiy tadqiqotlar mahalliy fanda hali yetarli darajada mavjud emas [5]. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Muhokama.** "Shaxsga doir ma'lumotlar" tushunchasining huquqiy tabiatini tahlil qilishda, avvalo, uning konstitutsiyaviy asosiga murojaat qilish zarur [1]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra [6], har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş huquqiga ega. Ushbu konstitutsiyaviy norma "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunda batafsil rivojlantirilgan bo'lib, Qonunning 4-moddasiga muvofiq, shaxsga doir ma'lumotlar — bu muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda yoki boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotdir.

Qonunda ma'lumotlarga ishlov berishning asosiy tamoyillari — qonuniylik, aniqlik va ishonchlilik, maxfiylik va himoyalanganlik, sub'ektlar va operatorlar huquqlarining tengligi — mustahkamlangan [2]. Ayniqsa muhim jihati shundaki, Qonunning 15-moddasiga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlarni Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirish, ularni nomuayyan doiradagi shaxslarga oshkor etish "tarqatish" tushunchasiga kiradi va bu, umumiy qoida sifatida, faqat sub'ektning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Institutsional-nazorat mexanizmi ushbu qonunchilikning amalda ishlashini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism hisoblanadi [3]. Hukumat huzuridagi Davlat personallashtirish markazi shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilangan bo'lib, u shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrini yuritadi, mulkdor va operatorlar faoliyatini nazorat qiladi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-son qarori bilan esa Internet jahon axborot tarmog'ida fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish shartlarini buzgan mulkdor va operatorlarni maxsus reyestrda kiritish hamda ularning resurslaridan foydalanishni cheklash tartibi belgilangan — bu esa "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Yuridik javobgarlik mexanizmi qonun talablarini buzganlik uchun oldini oluvchi va jazolovchi ta'sir vositasi sifatida xizmat qiladi [4]. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan 1412-modda shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda oshkor etish, tarqatish, egasizlantirish, shuningdek mulkdor va operator tomonidan ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'rmaslik uchun jinoiy

javobgarlikni nazarda tutadi, bu Internetda shaxsiy ma'lumotlardan roziksiz foydalanish holatlarining ko'payishiga javoban kiritilgan qat'iy chora hisoblanadi.

“Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonunga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar ushbu himoya tizimini yanada kuchaytirdi [5] — xususan, biometrik, genetik va telekommunikatsiya operatorlari foydalanuvchilariga oid ma'lumotlarning majburiy tarzda O'zbekiston hududida saqlanishi talab etila boshlandi. Bu, Yevropa Ittifoqining GDPR reglamentidagi ma'lumotlarni transchegaraviy uzatishni cheklash tamoyiliga qisman o'xshash yondashuv bo'lib, milliy raqamli suverenitet va fuqarolar ma'lumotlari xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi [1]. Shu bilan birga, GDPRning “unutilish huquqi” kabi ayrim ilg'or institutlarini mahalliy qonunchilikka moslashtirib joriy etish istiqbolli yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

**Natijalar.** Internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning oltita asosiy huquqiy mexanizmini tahlil qilish jarayonida ularning mazmuni, huquqiy asosi va amaliy ahamiyati tizimlashtirildi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan:

### 1-jadval

**Internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning oltita asosiy huquqiy mexanizmini tahlili**

| № | Huquqiy mexanizm                                       | Mazmuni                                                                                                                                       | Huquqiy asosi                                                                               | Amaliy ahamiyati                                                                                     |
|---|--------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Konstitutsiyaviy kafolat mexanizmi                     | Shaxsning shaxsiy hayoti va shaxsiga oid ma'lumotlarga aralashishdan himoyalash huquqini eng yuqori huquqiy kuchga ega hujjatda mustahkamlash | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi                                     | Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi uchun eng yuqori, o'zgartirib bo'lmaydigan huquqiy asosning yaratilishi |
| 2 | Tushuncha va tamoyillarni normativ belgilash mexanizmi | “Shaxsga doir ma'lumotlar” tushunchasini va ularga ishlov berishning asosiy tamoyillarini qonun darajasida ta'riflash                         | “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonunning 4-moddasi va boshqa tegishli moddalar    | Huquq subyektlari uchun aniq, bir xilda tushuniladigan huquqiy tushunchalar tizimining yaratilishi   |
| 3 | Institutsional-nazorat mexanizmi                       | Shaxsga doir ma'lumotlar sohasida vakolatli davlat organini va uning nazorat vakolatlarini belgilash                                          | Vakolatli davlat organi (Davlat personallashtirish markazi) va “O'zkomnazorat” inspeksiyasi | Qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish uchun institutsional                                 |

| № | Huquqiy mexanizm                     | Mazmuni                                                                                                                                       | Huquqiy asosi                                                                                      | Amaliy ahamiyati                                                                               |
|---|--------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   |                                      |                                                                                                                                               | faoliyatini tartibga soluvchi normalar                                                             | mexanizmning mavjudligi                                                                        |
| 4 | Reyestr va ro'yxatga olish mexanizmi | Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarini davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazish, huquqbuzarlarni maxsus reyestrda kiritish                          | Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-son qarori va tegishli reyestr tartib-qoidalari  | Mulkdor va operatorlar faoliyatini shaffof va nazorat qilinadigan holga keltirish              |
| 5 | Cheklov va bloklash mexanizmi        | Qonun talablarini buzuvchi Internet resurslaridan foydalanishni cheklash yoki to'xtatish                                                      | Vazirlar Mahkamasining 707-son qarorida nazarda tutilgan foydalanishni cheklash tartib-qoidalari   | Qonunga zid tarzda ma'lumot tarqatuvchi resurslarga nisbatan operativ chora ko'rish imkoniyati |
| 6 | Yuridik javobgarlik mexanizmi        | Shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy oshkor etish, tarqatish yoki himoya choralari ko'rmalik uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlikni belgilash | O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 1412-moddasi, tegishli ma'muriy javobgarlik normalari | Huquqbuzarlik uchun oldini oluvchi va jazolovchi huquqiy ta'sir vositasining mavjudligi        |

1-jadvalda keltirilgan tahlildan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning konstitutsiyaviy asosdan tortib institutsional nazorat va yuridik javobgarlikka bo'lgan yaxlit huquqiy mexanizmlar tizimi shakllantirilgan. Ushbu mexanizmlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, har biri o'zining aniq funksional vazifasini bajaradi.

Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, qonunchilik so'nggi yillarda, xususan 2021 va 2026-yildagi o'zgartirishlar orqali, izchil ravishda takomillashtirilib borilmoqda, bu esa raqamli makondagi yangi xavf-xatarlarga (*biometrik ma'lumotlar xavfsizligi, transchegaraviy uzatish muammolari*) davlatning tezkor javob berishga intilayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil mavjud huquqiy tizimning asosiy elementlari to'liq shakllangan, biroq uni xalqaro ilg'or tajriba (GDPR) bilan yanada boyitish istiqbolli yo'nalish ekanligini tasdiqladi.

### **Natijalar va statistik tahlil.**

Tadqiqot natijalari internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi nafaqat nazariy-huquqiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston

Respublikasida raqamli xizmatlar va internetdan foydalanish ko'lamining kengayishi bilan bir qatorda axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar sonining keskin ortishi kuzatilmoqda. Rasmiy ochiq ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida quyidagi natijalar shakllantirildi.

## 2-jadval.

**O'zbekistonda internet va axborot texnologiyalari bilan bog'liq xavflarning ayrim statistik ko'rsatkichlari**

| No | Statistik ko'rsatkich                                                                                                         | Natija                          | Tahliliy ahamiyati                                                                    |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 1  | O'zbekistondagi internet foydalanuvchilari soni                                                                               | <b>31 mln.dan ortiq</b>         | Shaxsiy ma'lumotlarni raqamli muhitda qayta ishlash ko'lami kengayganini ko'rsatadi   |
| 2  | 2019-yilda IT yordamida sodir etilgan jinoyatlar                                                                              | <b>863 ta</b>                   | Kiberjinoyatchilikning boshlang'ich qiyosiy ko'rsatkichi                              |
| 3  | 2024-yilda IT yordamida sodir etilgan jinoyatlar                                                                              | <b>58 800 ta</b>                | 2019-yilga nisbatan keskin o'sish mavjudligini ko'rsatadi                             |
| 4  | 2023-yilda kiberjinoyatlarning jami jinoyatlardagi ulushi                                                                     | <b>6,2 %</b>                    | Kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilik tarkibidagi o'rnini ifodalaydi               |
| 5  | 2024-yilda kiberjinoyatlarning jami jinoyatlardagi ulushi                                                                     | <b>44,4 %</b>                   | Bir yil ichida kiberjinoyatlarning ulushi sezilarli darajada oshgan                   |
| 6  | Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik va kibero'g'rilikning kiberjinoyatlardagi ulushi                                     | <b>98 %</b>                     | Moliyaviy va identifikatsion ma'lumotlarning yuqori xavf ostida ekanligini ko'rsatadi |
| 7  | Soxta qo'ng'iroqlar orqali shaxsiy ma'lumotlarni egallashga qaratilgan ta'sirga duch keluvchi mobil qurilma foydalanuvchilari | <b>qariyb 95 %</b>              | Ijtimoiy muhandislik usullarining keng tarqalganligini ko'rsatadi                     |
| 8  | Kiberjinoyatlar oqibatida fuqarolardan o'zlashtirilgan mablag'lar                                                             | <b>1,909 trln so'mdan ortiq</b> | Kiberxavflarning iqtisodiy oqibatlari yuqoriligini ko'rsatadi                         |
| 9  | Tahlillarga ko'ra jabrlanuvchining o'zi bilmagan holda jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratgan holatlar                     | <b>95 %</b>                     | Huquqiy va kiberxavfsizlik savodxonligini oshirish zarurligini ko'rsatadi             |

2-jadval ma'lumotlarining tahlili O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonining jadallashishi bilan shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy qo'lga kiritilishi, ulardan firibgarlik maqsadlarida foydalanish hamda fuqarolarning raqamli identifikatsiyasiga tahdid soluvchi omillar ham kuchayib borayotganligini ko'rsatadi. Xususan, 2019-yilda axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar soni 863 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu

ko'rsatkich 58 800 taga yetgan. Hisob-kitobga ko'ra, besh yil ichida bunday jinoyatlar soni qariyb 68,1 baravar oshgan [7].

Ayniqsa, kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilik tarkibidagi ulushi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. 2023-yilda bu ko'rsatkich 6,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 44,4 foizga yetgan. Demak, bir yil ichida kiberjinoyatlarning jami jinoyatlardagi ulushi 38,2 foiz punktga oshgan, ya'ni ulush jihatidan qariyb 7,2 baravar ko'paygan. Bu holat jinoyatchilikning an'anaviy shakllardan raqamli muhitga jadal ko'chayotganligini ko'rsatadi.

Tahlilda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir jihat — kiberjinoyatlarning 98 foizini bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik yoki kibero'g'rilik tashkil etishidir. Mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etishda telefon raqami, bank kartasi rekvizitlari, tasdiqlash kodlari va boshqa identifikatsion ma'lumotlarni noqonuniy olish muhim xavf omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni faqat ma'lumotlar bazalarining texnik xavfsizligi bilan cheklash yetarli emas. Fuqarolarning o'z ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etishi, operatorlarning ma'lumotlarni saqlashi va qayta ishlashi hamda ma'lumotlar buzilishi yuz berganda javobgarlik masalalarini o'zaro bog'liq holda huquqiy tartibga solish talab etiladi.

Statistik ma'lumotlarda kiberjinoyatlarning 95 foizida fuqarolarning yetarli kiberxavfsizlik bilimiga ega emasligi sababli shaxsiy ma'lumotlarini firibgarlarga taqdim etishi yoki zararli dasturlarni o'rnatishi jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratishi qayd etilgan. Bu esa shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bir qatorda raqamli-huquqiy savodxonlikni oshirish ham profilaktikaning muhim yo'nalishi ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning asosiy huquqiy bazasi shakllantirilgan bo'lsa-da, raqamli muhitdagi xavflarning tez o'zgarishi qonunchilik va uni qo'llash mexanizmlarini muntazam takomillashtirishni talab qiladi. Shu jihatdan ma'lumotlar operatorlarining javobgarligini kuchaytirish, noqonuniy qayta ishlash va tarqatish holatlariga nisbatan samarali huquqiy choralarni qo'llash, axborot tizimlarida identifikatsiya va autentifikatsiya talablarini kuchaytirish hamda fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Statistik tahlil internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi kiberxavfsizlik, fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi va mulkiy manfaatlarini ta'minlash bilan bevosita bog'langan kompleks huquqiy muammo ekanligini ko'rsatdi. Kiberjinoyatlar sonining keskin o'sishi mavjud huquqiy mexanizmlarni zamonaviy raqamli tahdidlarga moslashtirish, profilaktik choralarni kuchaytirish va shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlovchi subyektlarning huquqiy mas'uliyatini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

**Xulosa.** Internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy kafolat, qonuniy tartibga solish, institutsional nazorat, reyestr tizimi, cheklov mexanizmi va yuridik javobgarlikdan iborat yaxlit tizim sifatida shakllangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu tizim so'nggi yillarda izchil takomillashtirilib borilmoqda, biroq raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi uni doimiy yangilab turishni talab qiladi.

Xalqaro ilg'or tajriba, xususan Yevropa Ittifoqining GDPR reglamentidagi ba'zi institutlarni mahalliy sharoitga moslashtirib o'rganish va joriy etish qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda Internetdagi

yangi texnologiyalar (*sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar*) sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy jihatlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. European Union. Regulation (EU) 2016/679 (General Data Protection Regulation). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2016. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj/eng>
2. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son. <https://lex.uz/docs/-4396419>
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Shaxsga oid ma'lumotlar oshkor etilishining salbiy jihatlar va ularni oldini olish choralari. – Toshkent, 2023. <https://pd.gov.uz/posts/view?id=13>
4. O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi. Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestri. – pd.gov.uz, 2024. <https://pd.gov.uz/>
5. “Butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3893085>
6. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
7. Creating a Safe Cyberspace by Combating Cybercrime. Uzbekistan's Experience in the Early Prevention of Cybercrime in the Context of Digital Transformation. Uzbekistan's Experience in Preventing Cybercrime and Ensuring a Safe Cyberspace <https://gov.uz/en/iiv/news/view/52319>